**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BARATOV BAHODIR SOYIB O‘G‘LI

SEPARABEL KUBIK STOXASTIK OPERATORLARNING DINAMIKASI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

UDK: 517.98

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BARATOV BAHODIR SOYIB O‘G‘LI

SEPARABEL KUBIK STOXASTIK OPERATORLARNING DINAMIKASI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1046 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Jamilov Uyg'un Umurovich**
fizika-matematika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar: **Yaxshiboyev Maxmadiyor Umirovich**
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Xudayarov Sa'nat Samadovich
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" aprel soat 1200 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Matematika va kompyuter ilmlari fakulteti, 2-bino 102-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (264 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" mart kuni tarqatildi
(2025-yil "27" mart dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Shoimqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Sh.D. Nodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.f.d. (PhD), dotsent

Y.X. Eshqobilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar rais o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab amaliy masalalar nochiziqli operatorlar bilan hosil qilingan dinamik sistemalarni ochib berishni taqozo qilmoqda. Kubik operatorlar matematik biologiya va genetika masalalarini hal qilishda muhim amaliy ahamiyatga egadir. Xususan, bunday evolyutsion operatorlar yirtqich va o‘ljalar (masalan, faglar va bakteriyalar)ning o‘zaro ta’sirini matematik modellashtirish jarayonida namoyon bo‘ladi. Populyatsiyalarning evolyutsiyasi (yoki dinamikasi) ko‘payish yoki kamayish va yashab qolish natijasida keyingi avlodlardagi holatning aniq o‘zgarishini o‘z ichiga oladi. Nochiziqli operatorlarning dinamik sistemasi orqali populyatsiya evolyutsiyasini aniqlash, simpleksni invariant saqlaydigan kubik stoxastik operatorlarning dinamikasini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda dunyo bo‘ylab matematik biologiyaning ko‘plab amaliy masalalarini yechishda nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasi asosiy vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Jumladan, separabel kubik stoxastik operatorlarning dinamikasini aniqlash masalasi, mazkur operatorlarni nochiziqli bo‘lganligi sababli ko‘plab nazariy va amaliy masalalarni keltirib chiqaradi. Bu borada maqsadli ilmiy izlanishlar bunday operatorlarning invariant to‘plamlarini tavsiflash, davriy nuqtalarini topish va ularning turlarini aniqlash hamda orbitalarning limit nuqtalari to‘plamini tavsiflashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan statistik fizika, biologiyaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, matematik biologiyada uchraydigan asosiy obyektlardan bo‘lgan simpleksni invariant saqlovchi Volterra kubik stoxastik operatorlar dinamikasini topishga oid salmoqli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, matematik fizika, ehtimollar nazariyasi va dinamik sistemalar” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda ilmiy natijalardan, ilm-fanning turdosh sohalaridan foydalanish maqsadida nochiziqli operatorlar bilan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasini tadqiqi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ–4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ–4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda fizika yoki biologiyadagi matematik modellarni o‘rganish uzluksiz yoki diskret vaqtli nochiziqli operatorlarning dinamikasini o‘rganishga keltiriladi. Kvadratik stoxastik operatorlar nochiziqli operatorlarning sodda sinfi bo‘lib sanaladi. Kvadratik stoxastik operatorlarni birinchi marta S. Bernshteyn tomonidan 1924-yilda kiritilgan. S. Ulam tomonidan kvadratik stoxastik operatorlar orbitalarining xarakterini tekshirish muammosi qo‘yildi.

Jumladan, o‘zbek matematiklari N.N. G‘anixo‘jayev, U.A. Roziqov, F.M. Muhamedov, U.U. Jamilov, A.Y. Hamrayev, R.T. Muhitdinovlarning ishlarida ba’zi novolterra kvadratik stoxastik operatorlari sinflariga tegishli operatorlari tadqiq qilindi. Ta’kidlab o‘tish joizki, novolterra kvadratik stoxastik operatorlar dinamikalari uchun umumiy nazariya kichik o‘lchamli simplekslarda ham mavjud emas. R.N. G‘anixo‘jayev tomonidan turnirlar va Lyapunov funksiyalari nazariyalaridan foydalanib Volterra kvadratik stoxastik operatorlari uchun orbitalarining asimptotik xarakteri tadqiq qilindi. Nochiziqli stoxastik operatorlarning yana bir sinfi kubik stoxastik operatordan tashkil topgan. U.A. Roziqov va Y.A. Hamrayevlar tomonidan ilk bor 2004-yilda kubik stoxastik operatorlarning ta’rifi berildi. Mualliflar tomonidan chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan kubik stoxastik operatorlar yagona qo‘zg‘almas nuqtaga ega bo‘lishi uchun operator koeffisiyentlariga yetarli shart topilgan. Ular tomonidan, bir o‘lchamli simpleksda aniqlangan Volterra kubik operatorlari dinamikasi o‘rganilgan. Chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan simmetrik Volterra kubik stoxastik operatori uchun orbitalarning limit nuqtalar to‘plami to‘liq tavsiflandi. Hoffman va boshqalar tomonidan klassik Lotka-Volterra tenglamalarini umumlashtirish g‘oyasi ilgari surildi. Shuningdek, dengiz faglari va bakteriyalarining o‘zaro ta’sirini aniqroq tasvirlash uchun tajribalar natijalari asosida Lotka-Volterra tenglamalariga darajani qo‘llab yangicha talqin qilish taklif qilindi. Yangi hosil bo‘lgan umumlashgan Lotka-Volterra tenglamalari C. Gavin, A. Pokrovskii, M. Prentice va V. Sobolevlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. E’tiborli joi shundaki, yuqorida keltirib o‘tilgan Volterra kubik stoxastik operatorlari umumlashtirilgan Lotka-Volterra tenglamalarining diskret analogi bo‘ladi. U.A. Roziqov va A.Y. Hamrayev tomonidan kubik stoxastik operatorning konstruktsiyasi berildi. Ushbu konstruksiya fiksirlangan chekli grafda berilgan ehtimollik o‘lchoviga bog‘liqdir. R.R. Davronov va U.U. Jamilovlar va M. Ladralar tomonidan shartli kubik stoxastik operatorlar deb atalgan novolterra kubik stoxastik operatorlari o‘rganilgan. Shuningdek, barcha shartli kubik stoxastik operatorlar yagona qo‘zg‘almas nuqtasi mavjudligi va bunday operatorlar regularlik xususiyatiga ega ekanligi ko‘rsatilgan. U.U. Jamilov, A.Y. Hamrayev va

M. Ladralar tomonidan, chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan bitta parametrga bog‘liq Volterra kubik stoxastik operatorlarining ixtiyoriy orbitasi yaqinlashuvchiligi isbotlangan.

Keyinchalik, Volterra kubik stoxastik operatorlar nazariyasi U.A. Roziqov, F.M. Muhamedov, U.U. Jamilov, A.Y. Hamrayevlarning ishlarida rivojlantirilgan. U.U. Jamilov va A. Reinfeldslar tomonidan qo‘shimcha shart bilan aniqlangan Volterra kubik stoxastik operatorlari oilasining ta’rifi berildi, hamda mazkur kubik stoxastik operatorlari uchun orbitaning limit nuqtalar to‘plami tavsiflandi.

F. Muhamedov, Ch.H. Pah va A. Roslilar tomonidan, noergodik Volterra kubik stoxastik operatorlari o‘rganildi. F. Muhamedov, A.F. Embong va A. Roslilar tomonidan kubik stoxastik operatorlar uchun operatorlarning suryektivligi ularning ortogonallikni saqlash xossasiga ekvivalent ekanligi isbotlangan. Shuningdek, ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan ortogonallikni saqlovchi (yoki suryektiv) kubik stoxastik operatorlari to‘liq tavsiflangan. U.U. Jamilov va M. Ladralar tomonidan chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan o‘rin almashtirish va bitta parametrga bog‘liq novolterra kubik stoxastik operatorning dinamikasi o‘rganilgan. Mazkur kubik stoxastik operatorlar uchun ixtiyoriy orbitaning yoki qo‘zg‘almas nuqtaga yoki davriy orbitaga yaqinlashuvchiligi ko‘rsatilgan.

U.A. Roziqov, S. Nazir va A. Zada va boshqalarning ilmiy ishlarida separabel kvadratik stoxastik operatorlar dinamikasini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan. Separabel kvadratik stoxastik operatorlarning analogi bo‘lgan separabel kubik stoxastik operatorlaning dinamikasini o‘rganish masalasi ancha murakkabdir. Shu bilan birga bunday operatorlarni o‘rganish uchun umumiy nazariya mavjud emasligi dissertatsiya ishning salohiyatini yanada oshiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasidagi OT-F-4-03 “Uzluksiz hamda diskret vaqtli aniq dinamik sistemalar, qismiy integral operatorlar spektrlari” (2017-2020-yillar) nomli fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Separabel kubik stoxastik operatorlar bilan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalar uchun ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta orbitasining limit nuqtalari to‘plamini tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

separabel kubik stoxastik operatorlarning invariant to‘plamlarini tavsiflash;

separabel kubik stoxastik operatorlarning davriy nuqtalarini topish va ularning tiplarini aniqlash;

separabel kubik stoxastik operatorlari uchun Lyapunov funksiyalarini qurish;

separabel kubik stoxastik operatorlari ixtiyoriy orbitasining asimptotik xarakterini tavsiflash.

Tadqiqotning obyekti: kubik stoxastik operatorlar bilan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalardir.

Tadqiqotning predmeti. Chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan separabel kubik stoxastik operatorlar.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada matematik analizning metodlari, funksional analiz, ehtimollar va dinamik sistemalar nazariyalari usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

separabel kubik stoxastik operatorlar uchun qurilgan chiziqli funksional shaklidagi Lyapunov funksiyalari koeffisiyentlari bilan dastlabki uchta matritsalar elementlari orasida bog‘liqliklar ifodalangan;

separabel kubik stoxastik operatorning Volterra kubik stoxastik operatori bo‘lishi uchun, chekli o‘lchamli simpleksning ichki sohasidan olingan ixtiyoriy nuqtada mos koordinatasining o‘zi qatnashmaydigan kubik formalarning nolga teng bo‘lishi zarur va yetarli ekanligi ko‘rsatilgan;

parametrlarga ayrim shartlar ostida bir o‘lchamli diskret dinamik sistemalar nazariyasi va monoton ketma-ketliklar usulidan foydalanib ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan separabel kubik stoxastik operatorning regulyar bo‘lishi, ya’ni ixtiyoriy orbitaning qo‘zg‘almas nuqtalardan biriga yaqinlashishi isbotlangan;

chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan o‘rin almashtirishga bog‘liq separabel kubik stoxastik operatorning ixtiyoriy orbitasi yoki qo‘zg‘almas nuqtaga yoki davri o‘rin almashtirish sikllarining tartiblarini eng kichik umumiy karralisiga teng davriy orbitaga yaqinlashishi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot yangi qiziqarli natijalardan iborat va ular kubik operatorlar bilan hosil qilingan dinamik sistemalarni tadqiq qilishda qo‘llanilishi mumkin. Separabel kubik stoxastik operatorlarning ixtiyoriy orbitasini limit nuqtalari to‘plami chekli to‘plam bo‘lishidan matematik biologiya masalalarida biologik sistemaning kelajagini prognozlashda qo‘lanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi natijalar matematik analiz, funksional analiz, diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyalarining fundamental natijalaridan foydalanganligi, hamda matematik mulohazalar va isbotlarning qat’iyligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kubik stoxastik operatorlar nazariyasida va nochiziqli diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasida qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati separabel operator bilan qurilgan dinamik sistema orbitasining limit nuqtalari to‘plamini tavsiflash orqali matematik biologiyadagi populyatsiya evolyutsiyasi xususiyatlarini prognozlashda qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, olingan natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullardan oliy o‘quv yurtlarida soha bo‘yicha magistratura talabalari va tayanch doktorantlar uchun maxsus kurs sifatida o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalar quyidagi yo‘nalishlarda amaliyotga joriy qilingan:

separabel kubik stoxastik operatorlar bilan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalarning davriy nuqtalari to‘plamidan va orbitalarning tavsifidan G00003447 raqamli “Kvant genetik algebralar va ularning tatbiqlari” mavzusidagi xorijiy loyihada novolterra kubik stoxastik operatorlarning dinamikasini tadqiq qilishda foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universitetining 2024-yil

17-oktabrdagi ma’lumotnomasi, BAA). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi biologik populyatsiya evolyutsiyasini ifodalaydigan kubik stoxastik operatorlarning davriy orbitalarini tavsiflash imkonini bergan;

separabel kubik stoxastik operatorlar bilan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalar uchun orbitalarning limit nuqtalari to‘plami tavsifidan OT–F-4-03 raqamli “Uzluksiz hamda diskret vaqtli aniq dinamik sistemalar, qismiy integral operatorlar spektrlari” mavzusidagi loyihada nochiziqli stoxastik operatorlarning orbitalarini tadqiq qilishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 26-sentabrdagi 04/3052-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi nochiziqli diskret vaqtli dinamik sistema orbitasining limit nuqtalari to‘plamini tavsiflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 8 ta ilmiy amaliy anjumanlarda, jumladan 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan, 1 tasi xorijiy jurnalda va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 86 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyada tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi yoritilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqot ishlari sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kvadratik va kubik stoxastik operatorlar”** deb nomlanuvchi birinchi bobida dissertatsiya mavzusini to‘la yoritish uchun zarur bo‘lgan asosiy ta’riflar va muhim tushunchalar keltirilgan. Shuningdek Lotka-Volterra operatorning kiritilishi va dinamikasi haqidagi natijalar bayon qilingan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida Lotka-Volterra operatorlarining uchun ta’rifi keltirilgan. Mashhur Lotka-Volterra tenglamalari turli xil ekologik va kimyoviy sistemalarni matematik modellashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Hoffmann va boshqalar tomonidan dengiz faglari va bakteriyalar populyatsiyalari o‘zaro ta’sirini modellashtirish uchun klassik Lotka-Volterra tenglamalari umumlashtirildi. Ya’ni Lotka-Volterra tenglamalarini eksperimental ma’lumotlar asosida fag-bakteriyalarning o‘zaro ta’sirini kengroq tasvirlash uchun ushbu tenglamalarga darajani qo‘llab modifikatsiya qilishni taklif qilindi. Hosil bo‘lgan yangi umumlashgan Lotka-Volterra tenglamalari atroflicha tadqiq qilindi. Umumlashgan Lotka-Volterra tenglamalari quyidagicha ifodalanadi:

$$\dot{x} = \alpha x - \beta x y^p, \qquad \dot{y} = -\gamma y^p + \delta x y^p. \tag{1}$$

Bu tenglamalarda, x va y bakteriyalar va fag populyatsiyalarining miqdoriga mos keladigan vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchilar va α, β, γ va δ sonlar esa ikki tur o‘rtasidagi va ularning tegishli populyatsiyalari ichidagi o‘zaro ta’sirlarning intensivligini boshqaradigan nomanfiy o‘zgarmas qiymatlardir. Shuni ta’kidlash joizki, har doim $p > 1$ deb olinadi, chunki $p = 1$ bo‘lganda (1) tenglamalar, klassik Lotka-Volterra tenglamalariga to‘g‘ri keladi. Klassik Lotka-Volterra tenglamalarini umumlashtirish bilan dengiz faglari bakteriyalar populyatsiyalarini modellashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Aslini olganda, (1) tenglamalar fag populyatsiyasining “samarali hajmi” uning “jismoniy hajmidan” farq qilishini anglatadi, bu samarali kattalik jismoniy hajmning p ko‘rsatkichiga to‘g‘ri proporsionaldir. Klassik Lotka-Volterra tenglamalarida $p = 1$ bo‘ladi va bu holda o‘zaro ta’sirlarda bitta yirtqich bilan bitta o‘lja to‘qnashadi deb faraz qilinadi. Umumlashgan Lotka-Volterra tenglamalarida $p > 1$ bo‘lgan hol uchun bir nechta yirtqich bitta o‘lja bilan to‘qnashadi deb faraz qilinadi. Umumlashgan tenglamalardagi $p = 2$ ko‘rsatkichi o‘zaro ta’sirni ifodalashda muhim bo‘lgan parametrning qiymatidir, ya’ni bu qiymat ikkita fagning bitta bakteriya bilan to‘qnashishini ta’minlaydi, deb faraz qilishimiz mumkin. Hoffmann buni bakteriya dengizda bir nechta fagni jalb qilishi bilan bog‘laydi, bu kontseptsiya laboratoriyada o‘tkazilgan tajribalar natijalari bilan tasdiqlanadi, haqiqatan ham natijalar har bir bakteriya 2-3 faglarni yuqtirishini ko‘rsatadi. Jumladan, (1) tenglamalardagi y^p belgilash p ta faglardan tashkil topgan “ov jamoalari” mavjudligini bildiradi va ularning o‘zaro birgalikdagi ta’sirida samarali bo‘ladi. Lotka-Volterra tenglamalarining darajadan foydalanib p ko‘rsatkichni kiritilgan modifikatsiyasi fag-bakteriyalarning o‘zaro ta’sirini yaxshiroq tushunish imkoni va an’anaviy yirtqich va o‘lja munosabatlaridan farqli dinamik sistemalarni tadqiq qilishni beradi. Yuqorida aytib o‘tilgan tenglamalar yirtqichlar va o‘ljalarning o‘zaro ta’sirini boshqaradigan diskret vaqtli Kolmogorov sistemasining o‘ziga xos misoli bo‘ladi.

Diskret vaqtli Kolmogorov sistemasi deb nomlanuvchi $K : \mathbb{R}^m_+ \to \mathbb{R}^m_+$ akslantirish quyidagicha aniqlanadi:

$$K(\mathbf{x}) = \left(x_1 g_1(\mathbf{x}), x_2 g_2(\mathbf{x}), \ldots, x_m g_m(\mathbf{x})\right), \qquad \mathbf{x} \in \mathbb{R}^m_+.$$

Bu sistemada, har bir x_i, kattalik i turlarning populyatsiyasi zichligini ifodalaydi va g_i funksiya i turlarning o‘zgarish sur’atini tavsiflaydi. Bu o‘zgarish sur’atlari populyatsiya zichligi $\mathbf{x} = (x_1, x_2, \ldots, x_m)$ vektorga bog‘liq. Diskret vaqtli Kolmogorov sistemasi g_i funksiyalarining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, turlarning o‘zaro ta’sirining har xil turlarini qamrab olishi mumkin.

Aytaylik, $E=\{1,2,\ldots,m\}$ chekli to‘plam bo‘lsin va E dagi barcha ehtimollik taqsimotlari to‘plami

$$S^{m-1}=\left\{\mathbf{x}\in\mathbb{R}_{+}^{m}:\ \sum_{i=1}^{m}x_i=1\right\},$$

kabi aniqlanadi va bu to‘plam $(m-1)$-o‘lchamli simpleks deb ataladi.

1-ta’rif. $\Phi:\mathbb{R}_{+}^{m}\to\mathbb{R}_{+}^{m}$ uzluksiz akslantirish uchun $\Phi\left(S^{m-1}\right)\subset S^{m-1}$ munosabat o‘rinli bo‘lsa, bunday akslantirishga stoxastik operator (SO) deyiladi.

2-ta’rif. $K:\mathbb{R}_{+}^{m}\to\mathbb{R}_{+}^{m}$ stoxastik Kolmogorov sistemasiga Lotka-Volterra operatori deyiladi.

Aytaylik, $\mathbf{x}^{(0)}\in S^{m-1}$ nuqta berilgan bo‘lsin va Φ SOni $\mathbf{x}^{(0)}\in S^{m-1}$ nuqtaga n marta ta’sirini $\Phi^{n}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$ bilan belgilaymiz. $\mathbf{x}^{(0)}\in S^{m-1}$ boshlang‘ich nuqtaning Φ SO ta’siri natijasidagi $\left\{\mathbf{x}^{(n)}\right\}_{n\geq 0}$ orbitasi (trayektoriyasi) deb

$$\mathbf{x}^{(n+1)}=\Phi\left(\mathbf{x}^{(n)}\right)=\Phi^{n+1}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right),\qquad n=0,1,2\ldots$$

qonuniyat bilan aniqlangan ketma-ketlikka aytiladi.

Dinamik sistemalar nazariyasining asosiy masalasi berilgan operator uchun orbitalarning asimptotik xarakterini o‘rganishdan iborat.

$\left\{\mathbf{x}^{(n)}\right\}_{n\geq 0}$ orbitaning ω-limit nuqtalari to‘plamini $\omega_{\Phi}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$ bilan belgilaylik. S^{m-1} simpleks kompakt to‘plam va $\left\{\mathbf{x}^{(n)}\right\}_{n\geq 0}\subset S^{m-1}$ bo‘lgani uchun $\omega_{\Phi}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)\neq\varnothing$ bo‘ladi.

Simpleksni ichki sohasi va chegarasini quyidagicha belgilab olamiz

$$\mathrm{int}S^{m-1}=\left\{x\in S^{m-1}:\prod_{i=1}^{m}x_i>0\right\},\qquad \partial S^{m-1}=S^{m-1}\setminus\mathrm{int}S^{m-1}.$$

3-ta’rif. Agar $\varphi:S^{m-1}\to\mathbb{R}$ uzluksiz funksiya va barcha $\mathbf{x}^{(0)}\in S^{m-1}$ nuqtalar uchun $\lim\limits_{n\to\infty}\varphi\left(\mathbf{x}^{(n)}\right)$ limit mavjud bo‘lsa, u holda φ funksiyaga Φ operator uchun Lyapunov funksiyasi deyiladi.

Agar $\mathbf{x}\in S^{m-1}$ nuqta $\Phi(\mathbf{x})=\mathbf{x}$ tenglikni qanoatlantirsa, u holda $\mathbf{x}$ nuqta Φ SO ning qo‘zg‘almas nuqtasi deyiladi. Φ SOning barcha qo‘zg‘almas nuqtalari to‘plamini Fix(Φ) bilan belgilaymiz, ya’ni Fix(Φ) = $\left\{\mathbf{x}\in S^{m-1}:\Phi(\mathbf{x})=\mathbf{x}\right\}$.

Agar $\mathbf{x}\in S^{m-1}$ nuqta $\Phi^{n}(\mathbf{x})=\mathbf{x}$ tenglikni qanoatlantirsa, u holda $\mathbf{x}$ nuqta Φ SOning davri n ga teng davriy nuqtasi deyiladi. $\Phi^{n}(\mathbf{x})=\mathbf{x}$ tenglikni qanoatlantiruvchi n sonlarning eng kichigi, $\mathbf{x}$ nuqtaning asosiy davri yoki eng kichik davri deb ataladi.

Ma’lumki, qo‘zg‘almas nuqtalar $\Phi(\mathbf{x})=\mathbf{x}$ tenglikni qanoatlantiradi. Asosiy davri n ga teng bo‘lgan barcha davriy nuqtalari to‘plamini (qo‘zg‘almas nuqtalardan tashqari) Per$_n$(Φ) bilan belgilaymiz. Ma’lumki, davriy nuqtaning barcha iteratsiyalari to‘plami davriy orbita hosil qiladi.

Aytaylik $D\Phi(\mathbf{x}^*) = (\partial\Phi_i / \partial x_j(\mathbf{x}^*))_{i,j=1}^m$ matritsa SOning $\mathbf{x}^*$ nuqtadagi Yakobi matritsasi bo‘lsin. Agar $\mathbf{x}^*$ qo‘zg‘almas nuqtaning $D\Phi(\mathbf{x}^*)$ Yakobi matritsasi birlik aylanada xos songa ega bo‘lmasa, u holda $\mathbf{x}^*$ giperbolik qo‘zg‘almas nuqta deb ataladi.

Agar $D\Phi(\mathbf{x}^*)$ Yakobi matritsasining barcha xos sonlari moduli birdan kichik bo‘lsa $\mathbf{x}^*$ giperbolik nuqta o‘ziga tortuvchi nuqta deb ataladi.

Agar $D\Phi(\mathbf{x}^*)$ Yakobi matritsasining barcha xos sonlari moduli birdan katta bo‘lsa $\mathbf{x}^*$ giperbolik nuqta o‘zidan itaruvchi nuqta deb ataladi.

Qolgan hollarda $\mathbf{x}^*$ giperbolik nuqta egar nuqta deb ataladi.

Nochiziqli SO larning eng sodda vakili kvadratik stoxastik operatorlardir.

4-ta’rif. S^{m-1} simpleksni o‘zini o‘ziga o‘tkazuvchi V akslantirish

$$V : x'_k = \sum_{i,j\in E} P_{ij,k} x_i x_j , \quad \forall k \in E, \tag{2}$$

ko‘rinishga ega bo‘lsa va $P_{ij,k}$ koeffitsiyentlar quyidagi shartlarni qanoatlantirsa

$$P_{ij,k} \geq 0, \quad \forall i,j,k \in E \quad \text{va} \quad \sum_{k\in E} P_{ij,k} = 1, \quad \forall i,j \in E, \tag{3}$$

V ga kvadratik stoxastik operator deyiladi.

Matematik biologiyada V kvadratik stoxastik operatorga populyatsiyaning evolyutsion operatori deb ataladi. Biologik populyatsiya deganda ko‘payishga nisbatan yopiq bo‘lgan organizmlar jamoasi tushuniladi. Har bir V kvadratik stoxastik operatorni (3) shartlarni qanoatlantiruvchi $\mathbf{P} = (P_{ij,k})_{i,j,k=1}^m$ kubik matritsasi yordamida yagona usulda aniqlash mumkin.

Masalaning murakkabligi berilgan $\mathbf{P}$ matritsaga bog‘liq. Shuni ta’kidlash joizki, asosiy masala umumiy holda kvadratik stoxastik operatorlar uchun hatto ikki o‘lchamli holda ham ochiq masala bo‘lib hisoblanadi. Biroq, ushbu masala Volterra kvadratik stoxastik operatorlari uchun kengroq o‘rganilgan.

Volterra kvadratik stoxastik operator (2) va (3) shartlarga qo‘shimcha

$$P_{ij,k} = 0 \qquad \text{agar} \qquad k \notin \{i, j\}, \qquad \forall i,j,k \in E, \tag{4}$$

munosabatlar bilan aniqlanadi.

(4) shartga tug‘ilgan farzand faqat ota-onasidan birining genotipini takrorlaydi deb biologik talqin berish mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, Volterra kvadratik stoxastik operator an’anaviy yirtqich-o‘lja modelining diskret vaqtli ko‘rinishini ifodalaydi.

R.N. G‘anixo‘jayev tomonidan turnirlar va Lyapunov funksiyalari nazariyalaridan foydalanib Volterra kvadratik stoxastik operatorlari uchun orbitalarining asimptotik xarakteri o‘rganildi. Biroq, novolterra kvadratik stoxastik operatorlar dinamikalari uchun umumiy nazariya kichik o‘lchamli simplekslarda ham mavjud emas.

§ 1.2 paragrafda chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan, ikkita matritsaga bog‘liq bo‘lgan, separabel kvadratik stoxastik operatorlarning dinamikasini o‘rganish haqidagi masala qaralgan.

Aytaylik, kvadrat stoxastik operatorlarni (2) va (3) shartlariga qo‘shimcha quyidagi shart bilan ko‘rib chiqaylik:

$$P_{ij,k} = a_{ik} b_{jk}, \quad \forall i, j, k \in E. \tag{5}$$

Bunda, $a_{ik}, b_{jk} \in \mathbb{R}$ sonlar va mos ravishda $A = (a_{ik})$ va $B = (b_{jk})$ matritsalarning elementlari, shuningdek (5) koeffitsiyentlar uchun (3) shartlar o‘rinli. U holda, (5) koeffitsiyentlarga mos kvadrat stoxastik operator V quyidagi shaklda bo‘ladi:

$$x'_k = (V(\mathbf{x}))_k = (A(\mathbf{x}))_k (B(\mathbf{x}))_k, \qquad \forall k \in E, \tag{6}$$

bu yerda $(A(\mathbf{x}))_k = \sum_{i=1}^{m} a_{ik} x_i$, $(B(\mathbf{x}))_k = \sum_{j=1}^{m} b_{jk} x_j$.

5-ta’rif. (6) shakldagi operatorga separabel kvadrat stoxastik operator deyiladi.

§ 1.3 paragrafda kubik stoxastik operatorlar haqida ma’lum tasdiq va teoremalar keltirilgan. Nochiziqli operatorlarning yana bir sinfi kubik stoxastik operatordan iborat.

6-ta’rif. S^{m-1} simpleksni o‘zini o‘ziga o‘tkazuvchi W akslantirish

$$W : x'_l = \sum_{i,j,k \in E} P_{ijk,l} x_i x_j x_k, \qquad \forall l \in E, \tag{7}$$

ko‘rinishda aniqlangan bo‘lib, uning $P_{ijk,l}$ koeffitsiyentlari

$$P_{ijk,l} \geq 0, \quad \forall i, j, k, l \in E \quad \text{va} \quad \sum_{l \in E} P_{ijk,l} = 1, \quad \forall i, j, k \in E, \tag{8}$$

shartlarni qanoatlantirsa W ga kubik stoxastik operator (KSO) deyiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, KSOlar nafaqat matematik biologiyada qo‘llaniladi, balki fizikaning spin sistemalarida uchlik o‘zaro ta’sirga ega bo‘lgan sistemalarni modellashtirish uchun ham qo‘llaniladi. Matematik biologiyada x_i o‘zgaruvchining vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi xarakteri haqidagi asosiy masalani hal qilish uchun orbitalarning asimptotik xarakterini o‘rganish kerak. Bundan tashqari, bu asosiy muammo, Volterra KSOlari uchun ko‘proq o‘rganilgan. Volterra KSOlari (7) va (8) shartlar bilan birga

$$P_{ijk,l} = 0 \qquad \text{agar} \qquad l \notin \{i, j, k\}, \quad \forall i, j, k, l \in E. \tag{9}$$

(9) shartlar quyidagicha biologik talqinga ega: keyingi avlod faqat ota-onasidan birining genotipini meros qilib olishini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Separabel kubik stoxastik operatorlar”** deb nomlanadi. Separabel kubik stoxastik operatorlarning dinamikasini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

§ 2.1 paragrafda uchta kvadratik matritsaga bog‘liq bo‘lgan, separabel kubik stoxastik operatorlari qurilgan. Separabel kubik stoxastik operatorlar uchun qurilgan chiziqli funksional shaklidagi Lyapunov funksiyalari koeffisiyentlari bilan dastlabki uchta matritsalar elementlari orasida bog‘liqliklar topilgan. Shuningdek, separabel kubik stoxastik operatorlarni Volterra operatorlari bilan ustma-ust tushishi uchun zaruriy va yetarli shartlar topilgan.

Aytaylik, elementlari haqiqiy sonlardan iborat $A=(a_{il})_{i,l=1}^{m}$, $B=(b_{jl})_{j,l=1}^{m}$ va $C=(c_{kl})_{k,l=1}^{m}$, kvadratik matritsalar bo‘lsin. (7) va (8) shartlar bilan berilgan KSOning koeffitsiyentlarini qo‘shimcha quyidagi shart bilan qaraymiz:

$$P_{ijk,l}=a_{il}b_{jl}c_{kl} \qquad \forall i,j,k,l\in E, \tag{10}$$

bu yerda $a_{il},b_{jl},c_{kl}\in\mathbb{R}$ haqiqiy sonlar va mos ravishda A, B va C matritsalarning elementlari. U holda, (10) shartda berilgan koeffitsiyentlarga mos keladigan W KSO quyidagicha:

$$x'_l=\big(W(\mathbf{x})\big)_l=\big(A(\mathbf{x})\big)_l\cdot\big(B(\mathbf{x})\big)_l\cdot\big(C(\mathbf{x})\big)_l \qquad \forall l\in E, \tag{11}$$

bu yerda $\big(A(\mathbf{x})\big)_l=\sum_{i=1}^{m}a_{il}x_i$, $\big(B(\mathbf{x})\big)_l=\sum_{j=1}^{m}b_{jl}x_j$, $\big(C(\mathbf{x})\big)_l=\sum_{k=1}^{m}c_{kl}x_k$.

7-ta’rif. (11) shakldagi operatorga separabel kubik stoxastik operator (SKSO) deyiladi.

1-izoh. (10) qo‘shimcha shart bilan aniqlangan KSOni uchta chiziqli operatorlarning ko‘paytmasi ko‘rinishida ifodalanishi uchun yetarli shart biroq shuni ta’kidlash kerakki, ushbu shart har doim ham zaruriy shart emas.

Izoh 1 ga ko‘ra $P_{ijk,l}$ koeffitsiyentli KSO uchun quyidagi

$$\begin{aligned}&P_{ijk,l}+P_{kij,l}+P_{ikj,l}+P_{kji,l}+P_{jik,l}+P_{jki,l}=\\&a_{il}b_{jl}c_{kl}+a_{kl}b_{il}c_{jl}+a_{il}b_{kl}c_{jl}+a_{kl}b_{jl}c_{il}+a_{jl}b_{il}c_{kl}+a_{jl}b_{kl}c_{il},\end{aligned} \tag{12}$$

shart o‘rinli bo‘lsa, KSOni uchta

$$\big(A(\mathbf{x})\big)_l=\sum_{i=1}^{m}a_{il}x_i,\ \big(B(\mathbf{x})\big)_l=\sum_{j=1}^{m}b_{jl}x_j,\ \big(C(\mathbf{x})\big)_l=\sum_{k=1}^{m}c_{kl}x_k,\ \forall l\in E,$$

chiziqli operatorlarning ko‘paytmasi sifatida ifodalash mumkinligini oson tekshirish mumkin. Demak, (10) shart (12) shartning xususiy holini ifodalar ekan.

(11) SKSOning ba’zi xossalarini keltirib o‘tamiz.

i) Agar A, B va C matritsalarning har birida satrlari bir xil bo‘lsa, u holda bu matritsalarga mos (11) operator o‘zgarmas (konstanta) operator bo‘ladi.

ii) Agar A va B matritsalarning har birida satrlari bir xil va C matritsa satrlari turlicha bo‘lsa, u holda ushbu matritsalarga mos (11) operator chiziqli stoxastik operator bo‘ladi.

iii) Agar A matritsaning satrlari bir xil va B, C matritsalarning satrlari esa turli bo‘lsa, u holda ushbu matritsalarga mos (11) operator separabel kvadrat stoxastik operator bo‘ladi.

iv) Agar A, B va C matritsalar turli satrli bo‘lsa, u holda ushbu matritsalarga mos (11) operator quyidagicha bo‘ladi:

$$x'_l=\left(\sum_{i=1}^{m}a_{il}x_i\right)\cdot\left(\sum_{j=1}^{m}b_{jl}x_j\right)\cdot\left(\sum_{k=1}^{m}c_{kl}x_k\right), \qquad \forall l\in E. \tag{13}$$

Shuni ta’kidlash joizki, yuqorida aytib o‘tilgan faktlarga ko‘ra, biz uchun faqat va faqat (13) SKSOning dinamikasini o‘rganish qiziqarli hol hisoblanadi.

Umuman olganda, chekli o‘lchamli simpleksda (13) SKSOning dinamikasini (fiksirlangan matritsalar uchun) o‘rganish murakkab masala hisoblanadi.

1-lemma. Agar barcha $i,j,k,l\in E$ lar uchun $A=(a_{il})_{i,l=1}^{m}$ yoki $B=(b_{jl})_{j,l=1}^{m}$ yoki $C=(c_{kl})_{k,l=1}^{m}$ matritsalardan biri kososimmetrik matritsa va qolgan ikkita matritsaning elementlari bir xil ishorali bo‘lsa, u holda ushbu matritsalarga mos operator SKSO emas.

Endi, SKSOlarni Volterra operatori bo‘lishi uchun zaruriy va yetarli shartini keltiramiz.

1-teorema. Volterra kubik stoxastik operatorning SKSO bo‘lishi uchun $\forall \mathbf{x}\in \operatorname{int} S^{m-1}$ nuqta va $\forall l\in E$ uchun $\sum\limits_{i,j,k\in E\setminus\{l\}} a_{il}b_{jl}c_{kl}x_ix_jx_k=0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

Faraz qilaylik $A=(a_{il})_{i,l=1}^{m}$, $B=(b_{jl})_{j,l=1}^{m}$ va $C=(c_{kl})_{k,l=1}^{m}$ matritsalar $W:S^{m-1}\to S^{m-1}$ SKSOning matritsalari va $\mathbf{I}$ matritsa $m\times m$ tartibli birlik matritsa bo‘lsin. U holda, quyidagi teoremani keltiramiz.

2-teorema. Agar barcha $i\in E$ uchun $\mathbf{d}=(d_1,\dots,d_m)$ vektorning koordinatalari $d_i\geq 0$ munosabatni qanoatlantirsa va barcha $i,j,k\in E$ uchun quyidagi $\beta\gamma A\mathbf{d}^T\leq \mathbf{Id}^T$, $\alpha\gamma B\mathbf{d}^T\leq \mathbf{Id}^T$, $\alpha\beta C\mathbf{d}^T\leq \mathbf{Id}^T$ tengsizliklardan kamida bittasi o‘rinli bo‘lsin, u holda quyidagicha aniqlangan

$$\varphi_d(\mathbf{x})=\sum_{l\in E} d_lx_l,$$

uzluksiz $\varphi:S^{m-1}\to\mathbb{R}$ funksiya $W:S^{m-1}\to S^{m-1}$ SKSO uchun Lyapunov funksiyasi bo‘ladi, bu yerda $\forall i,j,k\in E$ uchun A, B va C matritsalar W operatorning nomanfiy elementli matritsalari va $\alpha=\max\limits_{i,l\in E}\{a_{il}\}$, $\beta=\max\limits_{j,l\in E}\{b_{jl}\}$ va $\gamma=\max\limits_{k,l\in E}\{c_{kl}\}$.

SKSO uchun aniqlangan Lyapunov funksiyasidan foydalanib SKSOlarning limint nuqtalari to‘plamini yuqoridan baholaymiz. Quyidagi

$$D=\left\{\mathbf{d}\in\mathbb{R}^m: d_i\geq 0, d_1+\cdots+d_2>0, \beta\gamma A\mathbf{d}^T\leq I\mathbf{d}^T \text{ yoki } \alpha\gamma B\mathbf{d}^T\leq I\mathbf{d}^T \text{ yoki } \alpha\gamma C\mathbf{d}^T\leq I\mathbf{d}^T\right\}.$$

to‘plam berilgan bo‘lsin. U holda, har qanday $\mathbf{d}\in D$ uchun $\varphi_{\mathbf{d}}$ Lyapunov funksiyasi bo‘ladi. Ya’ni $\forall \mathbf{x}^{(0)}\in S^{m-1}$ uchun $\lim\limits_{n\to\infty}\varphi_{\mathbf{d}}\left(\mathbf{x}^{(n)}\right)=\lambda_{\mathbf{d}}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$, $\mathbf{d}\in D$ o‘rinli bo‘ladi. Demak, har qanday $\mathbf{d}\in D$ uchun $\omega\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)\subset\left\{\mathbf{x}\in S^{m-1}:\varphi_{\mathbf{d}}(\mathbf{x})=\lambda_{\mathbf{d}}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)\right\}$, bu munosabatdan esa $\omega\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)\subset\bigcap\limits_{\mathbf{d}\in D}\left\{\mathbf{x}\in S^{m-1}:\varphi_{\mathbf{d}}(\mathbf{x})=\lambda_{\mathbf{d}}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)\right\}$ ekanligi kelib chiqadi.

§ 2.2 paragrafda bir o‘lchamli simpleksda aniqlangan regular va davriy orbitaga yaqinlashuvchi SKSOlarga misollar keltirilgan.

Quyidagi musbat elementli matritsalarni qaraylik:

$$A=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12}\\ a_{21} & a_{22}\end{pmatrix},\quad B=\begin{pmatrix} b_{11} & b_{12}\\ b_{21} & b_{22}\end{pmatrix},\quad C=\begin{pmatrix} c_{11} & c_{12}\\ c_{21} & c_{22}\end{pmatrix}. \tag{14}$$

Faraz qilaylik A, B va C matritsaning elementlari uchun

$$a_{11}b_{11}c_{11}+a_{12}b_{12}c_{12}=1,\ a_{21}b_{21}c_{21}+a_{22}b_{22}c_{22}=1,$$
$$a_{21}b_{11}c_{11}+a_{11}b_{21}c_{11}+a_{11}b_{11}c_{21}+a_{22}b_{12}c_{12}+a_{12}b_{22}c_{12}+a_{12}b_{12}c_{22}=1,$$
$$a_{21}b_{21}c_{11}+a_{11}b_{21}c_{21}+a_{21}b_{11}c_{21}+a_{22}b_{22}c_{12}+a_{12}b_{22}c_{22}+a_{22}b_{12}c_{22}=1 \qquad (15)$$
shartlar o‘rinli bo‘lsin.

U holda (14) matritsalarga mos $W:S^1\to S^1$ separabel kubik stoxastik operator (SKSO) quyidagicha ko‘rinishga ega:
$$W:\begin{cases} x_1'=\left(a_{11}x_1+a_{21}x_2\right)\left(b_{11}x_1+b_{21}x_2\right)\left(c_{11}x_1+c_{21}x_2\right),\\ x_2'=\left(a_{12}x_1+a_{22}x_2\right)\left(b_{12}x_1+b_{22}x_2\right)\left(c_{12}x_1+c_{22}x_2\right).\end{cases} \qquad (16)$$

Endi $x_1+x_2=1$ va $x_1=x \ \Rightarrow\ x_1'=f(x_1)$ tengliklardan foydalanib (16) operatorning 2-koordinatasini quyidagicha bir o‘zgaruvchili kubik funksiya ko‘rinishida qayta yozishimiz mumkin
$$f\left(x\right)=ax^3+bx^2+cx+d, \qquad (17)$$
bu yerda $a=a_{22}b_{22}c_{22}-a_{12}b_{12}c_{12}+a_{12}b_{12}c_{22}+a_{12}b_{22}c_{12}+a_{22}b_{12}c_{12}-$
$a_{12}b_{22}c_{22}-a_{22}b_{12}c_{22}-a_{22}b_{22}c_{12}$,
$b=3a_{12}b_{12}c_{12}-2a_{12}b_{12}c_{22}-2a_{12}b_{22}c_{12}-2a_{22}b_{12}c_{12}+a_{12}b_{22}c_{22}+a_{22}b_{22}c_{12}-a_{22}b_{12}c_{22}$,
$c=a_{12}b_{12}c_{22}+a_{12}b_{22}c_{12}+a_{22}b_{12}c_{12}-3a_{22}b_{12}c_{12}$, $\quad d=a_{12}b_{12}c_{12}$.

Demak, (16) operatorning dinamikasini o‘rganish uchun (17) kubik funksiyaning dinamikasini o‘rganish yetarli ekan. Biroq (17) kubik funksiyaning dinamikasini o‘rganish murakkab hisoblanadi. Shu sababdan, dinamik sistemalarda uchrashi mumkin bo‘lgan hollarga misollar keltiramiz.

1-misol. Aytaylik,
$$A=\begin{pmatrix}1&0\\0&1\end{pmatrix},\quad B=\begin{pmatrix}1&3\\0&1\end{pmatrix},\quad C=\begin{pmatrix}1&0\\3&1\end{pmatrix},$$
matritsalar berilgan bo‘lsin. A, B va C matritsalarning elementlari (15) shartni qanoatlantiradi va ularga mos SKSO quyidagichadir
$$W:\begin{cases} x_1'=x_1^2\left(x_1+3x_2\right),\\ x_2'=x_2^2\left(x_2+3x_1\right).\end{cases} \qquad (18)$$

Ushbu belgilashlarni olamiz $\mathbf{e}_1=\left(1,0\right)$, $\mathbf{e}_2=\left(0,1\right)$ vektorlar bir o‘lchamli simpleksning uchlari va $\mathbf{c}=\left(\frac{1}{2},\frac{1}{2}\right)$ bo‘lsin. Quyidagi tasdiqni (18) operator uchun keltiramiz.

1-tasdiq. (18) SKSO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:

a) $\mathrm{Fix}\left(W\right)=\left\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2,\mathbf{c}\right\}$, hamda $\mathbf{c}$ nuqta itaruvchi qo‘g‘almas nuqta va $\mathbf{e}_1$, $\mathbf{e}_2$ nuqtalar tortuvchi qo‘zg‘almas nuqtalar;

b) $\mathbf{x}^{(0)}\in S^1\setminus \mathrm{Fix}\left(W\right)$ uchun
$$\lim_{n\to\infty}W^n\left(x\right)=\begin{cases}\mathbf{e}_2, & \text{agar } 0\le x_1^{(0)}<\frac{1}{2},\\ \mathbf{e}_1, & \text{agar } \frac{1}{2}<x_1^{(0)}\le 1.\end{cases}$$

2-misol. Quyidagi matritsalarni qaraylik:

$$A=\begin{pmatrix}0 & 1\\ 1 & 0\end{pmatrix},\quad B=\begin{pmatrix}3 & 1\\ 1 & 0\end{pmatrix},\quad C=\begin{pmatrix}0 & 1\\ 1 & 3\end{pmatrix}.$$

U holda, A, B va C matritsalarga mos separabel kubik stoxastik operator quyidagicha

$$W:\begin{cases}x_1' = x_2^2\left(x_2+3x_1\right),\\ x_2' = x_1^2\left(x_1+3x_2\right).\end{cases} \tag{19}$$

2-tasdiq. (19) SKSO uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:

i) $\mathrm{Fix}(W)=\{\mathbf{c}\}$ va $\mathbf{c}$ nuqta itaruvchi qo'zg'almas nuqtadir;

ii) $\mathrm{Per}_2(W)=\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2\}$;

iii) $\mathbf{x}^{(0)}\in S^1\setminus \mathrm{Fix}(W)$ uchun $\omega_W\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2\}$.

M. Akbari va M. Rabiilar tomonidan $f_a(x)=ax^2(x-1)+x$ (bu yerda $x\in\mathbb{R}$, $a\in\mathbb{R}\setminus\{0\}$) funksiya dinamikasi o'rganilgan. Agar $a<0$ bo'lsa, u holda $f_a(x)$ funksiya orbitasi xaotik bo'ladi. Shuningdek, $f_a(x)$ funksiya agar $0<a\le 4$ bo'lsa $f_a:[0,1]\to[0,1]$ bo'ladi. Agar $f_a(c)\in J_1$ bo'lsa, u holda $f_a(x)$ funksiya $\Lambda_a=\{x\in[0,x_1]: f_a^n(x)\in[0,x_1];\forall n\ge 1\}$ to'plamda orbitasi xaotik bo'ladi, bu yerda $a<0,\ c\in\mathbb{R}$ va $x_1>0$, $x_3\in(x_1,\infty)$, $J_1=[x_1,x_3]$ sonlar o'qidagi yopiq kesma. Demak, (17) funksiya $f_a(x)$ kubik funksiya bilan a parametrning qiymatlarida kesishmaydi.

Quyidagi kvadratik matritsalarni qaraylik:

$$A=\begin{pmatrix}a_{11} & a_{12} & a_{13}\\ a_{21} & a_{22} & a_{23}\\ a_{31} & a_{32} & a_{33}\end{pmatrix},\ B=\begin{pmatrix}b_{11} & b_{12} & b_{13}\\ b_{21} & b_{22} & b_{23}\\ b_{31} & b_{32} & b_{33}\end{pmatrix},\ C=\begin{pmatrix}c_{11} & c_{12} & c_{13}\\ c_{21} & c_{22} & c_{23}\\ c_{31} & c_{32} & c_{33}\end{pmatrix}.$$

U holda, ushbu matritsalarga mos $W:S^2\to S^2$ SKSO

$$W:\begin{cases}x_1'=\left(a_{11}x_1+a_{21}x_2+a_{31}x_3\right)\left(b_{11}x_1+b_{21}x_2+b_{31}x_3\right)\left(c_{11}x_1+c_{21}x_2+c_{31}x_3\right),\\ x_2'=\left(a_{12}x_1+a_{22}x_2+a_{32}x_3\right)\left(b_{12}x_1+b_{22}x_2+b_{32}x_3\right)\left(c_{12}x_1+c_{22}x_2+c_{32}x_3\right),\\ x_3'=\left(a_{13}x_1+a_{23}x_2+a_{33}x_3\right)\left(b_{13}x_1+b_{23}x_2+b_{33}x_3\right)\left(c_{13}x_1+c_{23}x_2+c_{33}x_3\right),\end{cases}$$

kabi ko'rinishda bo'ladi va bu yerda parametrlar quyidagi

$$a_{11}b_{11}c_{11}+a_{12}b_{12}c_{12}+a_{13}b_{13}c_{13}=1,\ a_{21}b_{21}c_{21}+a_{22}b_{22}c_{22}+a_{23}b_{23}c_{23}=1,$$
$$a_{31}b_{31}c_{31}+a_{32}b_{32}c_{32}+a_{33}b_{33}c_{33}=1,$$
$$a_{21}b_{11}c_{11}+a_{11}b_{21}c_{11}+a_{11}b_{11}c_{21}+a_{12}b_{12}c_{22}+a_{12}b_{22}c_{12}+a_{22}b_{12}c_{12}+a_{13}b_{13}c_{23}+$$
$$a_{13}b_{23}c_{13}+a_{23}b_{13}c_{13}=3,$$
$$a_{31}b_{11}c_{11}+a_{11}b_{31}c_{11}+a_{11}b_{11}c_{31}+a_{13}b_{13}c_{33}+a_{13}b_{33}c_{13}+a_{33}b_{13}c_{13}+a_{12}b_{12}c_{32}+$$
$$a_{12}b_{32}c_{12}+a_{32}b_{12}c_{12}=3,$$

$$a_{12}b_{22}c_{22}+a_{22}b_{12}c_{22}+a_{22}b_{22}c_{12}+a_{21}b_{21}c_{11}+a_{21}b_{11}c_{21}+a_{11}b_{21}c_{21}+a_{23}b_{23}c_{13}+$$
$$a_{23}b_{13}c_{23}+a_{13}b_{23}c_{23}=3,$$
$$a_{13}b_{33}c_{33}+a_{33}b_{13}c_{33}+a_{33}b_{33}c_{13}+a_{31}b_{31}c_{11}+a_{31}b_{11}c_{31}+a_{11}b_{31}c_{31}+a_{32}b_{32}c_{12}+$$
$$a_{32}b_{12}c_{32}+a_{12}b_{32}c_{32}=3,$$
$$a_{32}b_{22}c_{22}+a_{22}b_{32}c_{22}+a_{22}b_{22}c_{32}+a_{23}b_{23}c_{33}+a_{23}b_{33}c_{23}+a_{33}b_{23}c_{23}+a_{21}b_{21}c_{31}+$$
$$a_{21}b_{31}c_{21}+a_{31}b_{21}c_{21}=3,$$
